



SARLAVHA: O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARINI MOLIVAVIY NAZORAT QILISHNI TOKOMILLASHTIRISH

Xoliqov Akmal Asrorovich


<https://doi.org/10.5281/zenodo.13770607>

O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik tushunchasining mazmuni va mohiyati, hozirgi holati, milliy iqtisodiyotimizda tutgan o'rni va afzalliklari. Shuningdek o'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalari va ularni monitoring qilishni takomillashtirish. Bundan tashqari davlat-xususiy sheriklik qonunining qabul qilinishidan ko'zlangan maqsadi va davlat-xususiy sheriklik (DXSh) rivojlangan mamlakatlar tajribasi yoritilgan.

davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini moliyaviy nazorati bag'ishlangan. Ishning asosiy maqsadi, moliyaviy resurslarni boshqarish va ulardan foydalanish jarayonida sodir bo'ladigan muammolarni aniqlash, shuningdek, ushbu muammolarga yechim topish yo'llarini o'rganishdan iborat. Diplom ishida zamonaviy moliyaviy tahlil usullari va davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda eng yaxshi xalqaro tajribalar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ushbu sohada samarali monitoring tizimini yaratish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlash yo'llari muhokama qilingan. Ishning natijalari, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini tizimidagi nazorat tadbirlarini yanada samarali va samarador qilish, shuningdek, moliyaviy resurslarni boshqarish tizimini yaxshilashga qaratilgan takliflar asosida amalga oshiriladi.

Jahonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda davlat-xususiy sheriklik mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etish bosqichlari va sohalarini aniqlash: tarnsport, energetika, sog'likni saqlash, komunal, suv xo'jaligi, madaniyat, sport, oliy ta'lim sohasida talabalar uchun yotoqxonalarini qurish, maktab va bolalar bog'chalari, va boshqa sohalarda davlat va xususiy investorlarni o'zaro samarali hamkorligini rivojlantirish, hududiy infratuzilma obyektlari faoliyat samaradorligini ta'minlash usul va vositalarini joriy etish, sohaning istiqboldagi faoliyat miqyoslarini baholash va prognoz qilish singari tadqiqot yo'nalishlarini qayd etish mumkin.

Mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish borasida bir qancha muhim chara-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida





davlat-xususiy sheriklikni sohasida bo'yicha bir qancha vazifalar belgilab berildi. Jumladan:

- Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va **30 milliard dollar** davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish.

- Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish orqali 2024-yildan boshlab har yili davlat-xususiy sheriklik asosida kamida

100 tadan umumiy o'rta ta'lim muassasalari qurilishi bo'yicha shartnomalar tuzish;

- Davlat-xususiy sheriklik asosida va xalqaro moliya institutlaridan jalb qilinadigan mablag'lar hisobidan 2 milliard dollarlik umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish loyihalarini amalga oshirish;

- Davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan loyihalarni daromadliligi va Davlat budjetiga yukini inobatga olib, ularni tasniflash hamda loyiha yo'nalishlari bo'yicha boshqarish tizimini joriy etish;

- transport-logistika yo'nalishida Toshkent – Samarqand va Toshkent – Farg'ona vodiysi yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklik asosida avtomobil yo'llarini qurish, Samaradorligi past bo'lgan hududiy aeroportlarni davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va ishonchli boshqaruvga berish, shuningdek, Respublikaning 6 ta yirik aeroportini, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish va xususiy aviakompaniyalar sonini 10 taga yetkazish;

- Xalqaro moliya institutlari bilan O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ishlab chiqish jamg'armasini tashkil etish.

- Irrigatsiya sohasiga xususiy sektorni jalb qilish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng joriy qilish hisobiga xususiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish.

- Fuqarolarni xorijiy hamkorlar bilan birgalikda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida kasb-hunarga va chet tillariga o'qitish doirasida 2 mingga xorijiy kompaniyalar bilan kasbga o'qitish va ish bilan ta'minlash tizimini tashkil etish.

Yuqoridagilarga ko'ra mazkur sohani ilmiy tadqiq qilishni yanada zarur va dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonning davlat-xususiy sheriklik loyihalarini monitoring tadbirlarini o'tkazish va ularning samaradorligini oshirishga oid ilmiy yondashuvlarni boyitadi. Tadqiqot, moliyaviy nazorat tizimlari va boshqaruv





amaliyotlariga zamonaviy ilmiy metodologiyalar va nazariyalarini tatbiq etish orqali yangi bilimlar yaratishga xizmat qiladi. Bu, moliyaviy nazorat sohasida ilmiy tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar ochib beradi va kelajakdagi o'rganishlar uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalari, O'zbekiston iqtisodiyoti va jamiyati uchun katta ahamiyatga ega. Samara va shaffoflikning oshirilishi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga va davlat mablag'laridan samarali foydalanishni rag'batlantirishga yordam beradi. Bu esa, davlat byudjetining optimallashtirilishi, korrupsiyaga qarshi kurashishda yangi yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini yaratadi va umuman, jamiyatning moliyaviy sog'lomlashuvida muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda DXSh modellarini o'zining iqtisodiyotining turli sohalariga samarali tatbiq etgan davlatlar juda ko'plab topish mumkin. Jumladan: Xitoy, Turki, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya kabi mamlakat DXSH tizimining samaradorligi tahlili Xitoyda Bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasi modelini iqtisodiyotning turli sohalarida jadal qo'llanmoqda. Jumladan:

Bugungi kunda Xitoy Xalq Respublikasi Davlat-xususiy sheriklik (keyingi o'rinlarda – DXSH) modelini iqtisodiyotning turli sohalarida jadal qo'llanmoqda. Xitoyning DXSH markazi (**China public private partnerships center**) tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil noyabr oyi oxirida ma'lumotlar bazasidagi DXSH loyihalarning umumiy soni **14081** tani va kiritilgan investitsiyalar umumiy qiymati **21,1 trln.yuan** tashkil etgan. Xususan, boshqaruv bazasidagi loyihalar soni **10363 ta** bo'lib, investitsiya hajmi 16,8 trln.yuan zaxira ro'yxatidagi loyihalar soni 3718 ta bo'lib, investitsiya hajmi 4,3 trln.yuan.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida Xitoyning Janubi-G'arbiy qismidagi Nujiang daryosi vodiysidagi Lujiang tekisligidagi Mangdan qishlog'idagi DXSH loyihasi misolida ko'rish mumkin.

Turkiya so'nggi 15 yil ichida transport, energetika, sog'likni saqlash va boshqa sohalarida umumiy qiymati 100 milliard dollarga yaqin bo'lgan 100 ga yaqin davlat xususiy sheriklik loyihani amalga oshirdi¹. Xususan sog'likni saqlash sohasi davlat-xususiy sheriklik modelini joriy qilish bo'yicha mamlakat katta tajribaga ega.

Mamlakatimizda ham Turkiya tajribasini o'rgangan holda davlat xususiy-sheriklik shartlari asosida kasalxonalar barpo etish yuzasidan Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi kasalxonalar qurush





bo'yicha ushbu kampaniyalar bilan 2022-yilning dekabr oyi davomida muzokara ishlarni olib bordi.

"Rönesans Holding" kompaniyasi tomonidan Toshkent viloyati, Nurafshon shahrida Dxsh shartlari asosida shifoxona qurish bo'yicha o'z takliflari taqdim etgan. Taklifda kompaniya quyidagilarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

1. Dxsh shartlari asosida keyingi 10 yil ichida kamida 600 o'rinli 3 ta shifoxona loyihasini qurish va ishlatish.

2. Har birining qurilish maydoni 250.000 m² bo'lgan 3 ta shifoxona loyihasini keyingi 10 yil ichida yakunlash.

3. Dxsh shartlari asosida qurilgan 3 ta shifoxonada kompaniya tomonidan quyidagi xizmatlarni ko'rsatish:

- Qurilish va ta'mirlash xizmati;
- Mebel xizmati;
- Kasalxona hovlisidagi yer va bog'larga xizmat ko'rsatish;
- Avtoturargoh xizmati;
- Tozalash xizmati;
- Kasalxona ma'lumotlarini boshqarish tizimi (HIMC) xizmati;
- Xavfsizlik xizmati;
- Bemorni yuborish va hamrohlik / Qabul qilish / Yordam bo'limi / Transport xizmati;
- Tibbiy asbob-uskunalarini texnik xizmat ko'rsatish xizmati;
- Kir yuvish xizmati;
- Ovqatlanish xizmati.

Buyuk Britaniyada 1980-yillarda qabul qilingan xususiy moliya modeli 2018-yilda bekor qilinmaguncha, o'z faoliyati davomida 56 milliard funt sterlingga yaqin xususiy investitsiyalar bilan 700 dan ortiq DXSH loyihalarini jalb qildi. Mamlakat G'aznachiligi 2028-yilgacha infratuzilma rejasini tasdiqladi, unda 600 milliard funt sterling miqdoridagi investitsiyalar ko'zda tutilgan, shundan 50 foizi DXSH orqali jalb qilinishi kerak. 2017-2021-yillarda Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, Buyuk Britaniya 2000 dan ortiq loyihalarga ega bo'lgan infratuzilmada loyihalar soni va jalb qilingan mablag'lar hajmi bo'yicha Yevropa bozorida yetakchilardan biri hisoblanadi. Bu davrda umumiy qiymati qariyb 7,5 milliard yevroga teng 30 dan ortiq loyiha amalga oshirildi.

Xitoy Xalq Respublikasi davlati hamda vatanimizda ilmiy faoliyatini olib borayotgan ayrim olimlarning aktivlar sifatini tasniflash bo'yicha hamda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining amalga oshirish jarayonlari ularni amalga oshirishda yuzaga kelish mumkin bo'lgan muammolarni kelib chiqish





sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha bergan fikrlari atroflicha o'rganildi.

Olimlarning ilmiy ishlari bilan tanishish jarayonida shu ma'lum bo'ldiki, davlat-xususiy sheriklik sohasida bugungi kungacha ko'plab olimlar izlanishlarni amalga oshirishgan ekan va ushbu izlanishlar natijalari bo'lgan ularning fikr va mulohazalari bugungi kunda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish jarayonida, ularni monitoringini amalga oshirish jarayonida hamda davlat xususiy sheriklik loyihalariga investitsiyalarni kiritish jarayonida ham o'z aksini topganligi ma'lum bo'lmoqda.

Masalan: ko'pgina olimlarning fikrlari jamlangan xulosalarga to'xtaladigan bo'lsak, jumladaniqtisodiy va ijtimoiy sohaning ustuvor yo'nalishlarida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligi va afzalliklarini baholash, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish, shu jumladan, muayyan loyihalar konsepsiyalarini ishlab chiqish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish masalalarida investorlar, xalqaro moliya va donor tashkilotlari, ilmiy va ekspert hamjamiyatlari, shuningdek, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan hamkorlikni tashkil etish, ma'lumotlarni tezkor va aniq jamlash va ularning vizualizatsiyasini ta'minlashning tez va samarali yo'llarini yuqori informatsion texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirish kabi fikrlar bugungi kundagi banklarning faoliyatida o'z aksini topib kelmoqda.

